

JADIDCHILIK G'OYALARI TARG'IBOTINING IJTIMOYIY-IQTISODIY SOHALARGA TA'SIRINING FALSAFIY TAHLILI.

Patiyev Xoldor Ikromovich

Termiz davlat pedagogika institute Falsafa, ma'naviyat asoslari va
huquq ta'limi kafedrası o'qituvchisi

Annotatsiya



Ushbu maqola jadidchilik g'oyalari targ'ibotining ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga ta'sirini falsafiy tahlil qilishga bag'ishlangan. Jadidchilik harakati, asosan, XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'zining ilg'or g'oyalari va zamonaviylashtirish siyosati orqali jamiyatni yangilashga intilgan. Maqolada jadidchilik g'oyalari tarqatilgan vaqtlarida ularning ta'siri, xususan, ta'lim, madaniyat va iqtisodiyot sohalaridagi o'zgarishlar falsafiy nuqtai nazardan ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Jadidchilik, ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir, falsafa, innovatsion g'oyalar, ta'lim, madaniyat, yangilanish.

Аннотация

Данная статья посвящена философскому анализу влияния пропаганды модернистских идей на социальную и экономическую сферы. Модернистское движение, главным образом в конце 19 — начале 20 веков, стремилось обновить общество посредством своих прогрессивных идей и политики модернизации. В статье с философской точки зрения рассматривается влияние модернистских идей в период их распространения, особенности изменений в сферах образования, культуры и экономики.

Ключевые слова: Модернизм, социально-экономическое воздействие, философия, инновационные идеи, образование, культура, обновление.

Annotation

This article is devoted to the philosophical analysis of the influence of the propaganda of modernist ideas on social and economic spheres. The modernist movement, mainly in the late 19th and early 20th centuries, sought to renew society through its progressive ideas and modernization policies. The article examines the influence of modernist ideas during the time they were spread, especially the changes in the fields of education, culture and economy from a philosophical point of view.

Key words: Modernism, socio-economic impact, philosophy, innovative ideas, education, culture, renewal.

Jadidchilik g'oyalari o'z vaqtida jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu harakatning asosiy maqsadi – yangilik va o'zgarishlarni kiritish orqali xalqni zamonaviylashtirish va ilg'or fikrlarni rivojlantirish edi. Maqolada jadidchilik g'oyalarining asosiy tamoyillari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy sohalarga ta'siri falsafiy tahlil qilinadi.

Shu o'rinda jadidlarning mamlakat aholisining ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlariga ham e'tiborsiz bo'lmaganligini ko'rib chiqishimiz mumkin bo'ladi. Jadidchilar xalqni farovon va davlatni taraqqiy etgan davlatlar safida ko'rishga umid qilganlar. Ular o'zlarining ko'plab asarlarida va maqolalarida aholining ijtimoiy ahvoli va uni bartaraf etish yo'llari haqida fikr bildirib o'tganlar. Darhaqiqat, shu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, biz o'rganayotgan jadidlarning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlari bugungi islohotlarimiz bilan bevosita mos keladi, bu esa milliy ma'naviyatimiz, mafkuramiz va iqtisodiyotimizning tarkibiy tuzilmalarini takomillashtirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy vazifasi milliy iqtisodiyotga xorijiy sarmoya va texnologiyalarni joriy etish, milliy bozorlarimizni rivojlantirish va mamlakatimizning jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvini ta'minlash, makroiqtisodiyotimiz tarkibini millat va xalq fikri nuqtai nazaridan tubdan o'zgartirishdir.

Milliy ziyolilar, ilg'or taraqqiyparvar kuchlar, mustamlaka Turkiston, Rossiyaga yarim qaram bo'lgan Buxoro va Xiva xonliklaridagi inqirozli vaziyat, bu davlatlarning jahon taraqqiyotidan orqada qolishi, mahalliy xalqlarning erk uchun intilishlarining bostirilishi, nafaqat iqtisodiy, balki diniy sohada, ma'naviy sohada ham vujudga kelgan turg'unlikni chuqur anglab yetdi va bu ularning ongida jamiyatni isloh qilish g'oyalarini uyg'otdi-ki, busiz taraqqiyotni

tasavvur etib bo'lmaydi. Bu haqida tatqiqodchi Sh.Qudratov Buxoro amirligida jadidlarning tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangicha qarashlarining vujudga kelishiga qaratilgan maqolasida XIX asr oxiri XX asr boshlarida tadbirkorlik va tijorat ishlarini rivojlantirish uchun yangicha qarashlar shakllanganligini "Jamiyatning barcha jabhalarida o'zgarishlar bo'lishini istagan taraqqiyparvar ulamolar va jadidlar iqtisodiy hayotdagi muammolarni tanqid qilib ularga yechim izlay boshladilar hamda sohani rivojlantirish bo'yicha o'zlarining g'oyaviy dasturlarini ishlab chiqdilar. Ularning iqtisodiy g'oyalari markazda iqtisod ilmini o'rganish zarurligi, dunyo davlatlarida bo'lgani kabi ilg'or texnika va texnologiyalarni amirlik hududiga jalb etish, savdo-tijorat ishlarini ilmiy qurish, tadbirkorlik, agrar iqtisodiyot samaradorligini oshirish kabi masalalar muhim o'rin tutgan. Millat oydinlari tomonidan ilgari surilgan islohotchilik g'oyalarining asosiy maqsadi insonga munosib yashash va faoliyat olib borish sharoitlarini vujudga keltirishdan iborat edi"³³-deya fikr bildirib o'tgan bo'lsa, professorlar N.Hakimov va D.Amridinova Turkiston jadidlari iqtisodiy qarashlariga bag'ishlangan maqolasida ijtimoiy-iqtisodiy masalaga kengroq to'xtalib o'tadi. Ularning ta'kidlashicha, Turkiston o'lkasining o'sha davrda iqtisodiy taraqqiy etgan davlatlardan ortda qolishi va mustamlakachilikdan aziyat chekayotgan halqning og'ir ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli kabi holatlar Turkiston jadidlarini ijtimoiy taraqqiyotning innovatsion yo'lini kashf etishga undadi. O'z davrining ziyolilari vujudga kelgan vaziyatda mamlakat qoloqligining tub sababini ma'rifatsizlikda deb bildilar. Aynan ma'rifatsizlik tufayli hukm surgan jaholatni bartaraf etishda maorif va ma'rifat yo'li tanlashdi. Natijada jadidchilik xarakati yo'l boshchilari asosiy e'tiborni maorifni isloh qilishga qaratdilar. Ushbu ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda yangi usulda o'qitiladigan maktablar, kutubxonalar, qiroatxonalar barpo etib, ularni o'quv darsliklari va qo'llanmalar bilan ta'minlash bilan birga ma'rifatparvarlik g'oyalarini yosh avlodga singdirish uchun faoliyat olib bordilar. Yuqoridagi mualliflar fikrlarini davom etirib, - "Ma'rifat g'oyalari mazmuni, mamlakatni qoloqlikdan qutqarishning asosiy ildizi iqtisodiy rivojlanish, odamlar ongida iqtisodiy ong va mustaqil iqtisodiyotni shakllantirish uchun zarur bo'lgan fikrni shakllantirish jarayoni bilan uzviy bog'liq edi"³⁴- deb yozadilar.

R.Sharipov va F.Muxiddinova o'z tadqiqotlarida shunday yozadilar: "Jadid adabiyotining, hatto, publitsistikasining o'ziga xos tomonlaridan biri shundaki, jadidlar bunday iqtisodiy tanglikning ildizini, uning kim tufayli, qanday sabablar bilan paydo bo'lganini kavlab o'tirmaydilar. Ularning maqsadlari xalqni shu botqoqdan, jaholatdan, iqtisodiy nochor turmushdan olib chiqishdir"³⁵.

Biz yuqoridagi mualliflarning fikrlaridan kelib chiqqan holda ba'zi jadidchilarning ijtimoiy-iqtisodiy masalaga bag'ishlangan maqolalari va asarlarini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilishni maqsad qildik. Xususan, Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hoji Muin kabilar bu masalaga jiddiy e'tibor qaratganlar. Jadid ma'rifatparvarlari o'zlarining islohotchilik loyihalarida iqtisodiy masalaga ham alohid e'tibor beradi. Chunki inson turmush tarzi uchun kerak bo'lgan eng asosiy omillar ma'naviyat va moddiyat hisoblanadi. Bu haqida Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "Biz yangi O'zbekistonni barpo etishga qaror qilgan ekanmiz, ikkita mustahkam ustunga tayanamiz. Birinchisi — bozor tamoyillariga asoslangan kuchli iqtisodiyot. Ikkinchisi — ajdodlarimizning boy merosi va milliy qadriyatlarga asoslangan kuchli ma'naviyat"³⁶, — degan fikrlari buni yanada ahamiyatini ochib beradi.

³³ Qudratov, Sh.Y. Buxoro amirligida jadidlarning tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangicha qarashlarining vujudga kelishi. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 2 Issue: 03 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314.-B.101.

³⁴ Hakimov N.H. , Amridinova D.T. Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari. Falsafa-Siyosat. 2022/№2.-B.40

³⁵ Р.Шарипов, Ф.Мухиддинова. Ўзбекистон халқлари сиёсий-ҳуқуқий таълимотлар тарихи. Т.: TDYU 2014. -B:106.

³⁶ Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. № PQ-3160, 28 iyul 2017 yil. <https://lex.uz/docs/-4071203>.

Mahmudxo‘ja Behbudiy o‘z maqolalarida xalqning qiyin ahvolga tushib qolishi, iqtisod va tujjoriy ishlarda yetarlicha tushunchaning yo‘qligi, millatning ertangi kuni haqida qayg‘urib yozib qoldirgan. F.ning jadidlar milliy ziyolilar sifatida namoyon bo‘lishi maqolasida M.Behbudiyning Turkistonning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqidagi fikrlari tilga olingan. Maqola muallifi Behbudiyning savdo, bank va ishbilarmonlik sohalarida zarur islohotlarni amalga oshirish bo‘yicha takliflari haqida ma‘lumot berib, ayni paytda Behbudiy o‘zbek ziyolilarining yetuk va har tomonlama rivojlangan yetakchisi sifatida ko‘rsatadi.

Fitrat savdo va tijorat ishining o‘ziga xos qoidalar mavjudligiga e‘tibor qaratib, savdo va tijorat ishida millat, Vatan, yurt manfaatlari hisobga olinishi, ana shu manfaatlardan kelib chiqib, o‘zaro ittifoq bo‘lib faoliyat ko‘rsatish lozimligini, savdo va tijorat ahli tovarlar va xizmatlar ishlab chiqarishni zamonaviy sanoat asosida qurilishiga yordam ko‘rsatishlari, sohibkorlarga amaliy madad berish kerakligi: savdo va tijorat ahli “Savdo ilmini zo‘r berib o‘qishlari va bilishlari lozimligini yevropaliklarning savdo va tijoratdan foyda olishlari zaminida madaniy savdo qilish ilmi bilishlaridan ekanligini”³⁷ haqida aytib o‘tadi.

Ushbu muommoni yoritishda Mahmudxo‘ja Behbudiy qarashlaridan boshlashni lozim topdik. Chunki O‘rta Osiyo ma‘rifatparvarlari orasida tan olingan yo‘lboshchi va yalovbardir.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ”Zo‘raki boy”, ”Oh Bonkalar-bizni barbod etdi”, ”Ehtiyoji millat” va boshqa ilmiy maqolalarida o‘sha davr ijtimoiy-iqtisodiy hayotini yoritib berishga xarakat qilgan. Ushbu maqolalarida asosan o‘sha davrning ba’zi boy insonlariga ota-bobosidan meros qilib o‘tgan boylikni qo‘ldan boy berishini iqtisodiy savodxonlik darajasiga ega bo‘lmaganligining natijasi sifatida yoritadi.

Shu o‘rinda iqtisodiy savodxonlik nima degan savolga javob berib o‘tamiz. Iqtisodiy savodxonlik shaxsning iqtisodiy faoliyatda ishtirok etishga tayyorgarlik, xo‘jalik faoliyatining nazariy asoslarini bilish, iqtisodiy aloqalar va munosabatlar mohiyatini tushunish, aniq iqtisodiy vaziyatlarni tahlil eta bilish qobiliyatini tashkil etadi

Behbudiy o‘z maqolalarida ota-bobosidan qolgan yer yoki bog‘ni garov evaziga qo‘yib, to‘rt-besh bankdan mulkning qiymatidan ko‘p bo‘lgan miqdorda pul olgan o‘rta xol boylar hayotini ta‘riflaydi. Olgan mablag‘dan tijorat maqsadida foydalanishga harakat qiladi. Lekin tujjoriy bilimlarga ega bo‘lmagan shaxs mahsulotni olishda va uni sotishda xatoliklarga yo‘l qo‘yadi. Bu esa uning iqtisodiy holatiga katta ta‘sir qiladi. Bundan tashqari, o‘sha mablag‘dan ozroq foyda ko‘rsa, dabdabali to‘ylar va marosimlar qiladi. Bunday narsalarga pulni sarf qilib, isrofchilikka yo‘l qo‘ygan zo‘raki boy bankka mablag‘ni qaytarish imkoniyatiga ega bo‘lmay qoladi. Natijada, ota-bobosidan qolgan merosni sotgan taqdirda ham qarzidan qutilolmay qoladi. Shundan keyin turkistonliklarga xos bo‘lgan dehqonchilik yoki mardikorlik ishiga qaytadi.

Bu muammo haqida Abdurauf Fitrat tijoratning o‘ziga xos madaniyatlari borligi va ularga amal qilish kerakligi to‘g‘risida “Tijorat masalasi bashariyatning hayot-mamot masalasidir. Dunyo xalqlaridan birortasining ishi tijoratsiz amalga oshmaydi. Ayniqsa bizning davrimizda tijorat juda e‘tibor berishga arziydi”³⁸ deb ta‘kidlaydi.

Mahmudxo‘ja Behbudiy ”Oh, bankalar bizni barbod etdi” maqolasida banklar emas aslida insonlarning o‘quvsizligi ularni hanavayron qilayotganligini aytadi. Yuqoridagi maqolada Bas nima bizni barbod etdi, - deydi fikrini davom etirib, - Nozoalla, hisobsizlik. To‘g‘ri, aql va tarbiyasizlik bizni barbod etdi. Ayb bonkada yo‘q, bizda. Chunki boshqa millatlar bonkalar sababi ila obod bo‘lur. Davlati va mulki ortur. Ammo biz, zohiran bonkalar sababi ila barbod va faqir bo‘larmiz. Avvalgi bor mulkimiz qo‘ldan ketarki, muning asl sababi bonka emas, o‘zimizni tarbiyasizligimiz va donishsizligimiz va behisobligimiz hamda naf‘ va zararimizni bilmaganimiz, tijorat ishi va ahli zamonadan bexabarligimizdan, xulosa, jaholat va nodonligimizdandur”³⁹.

³⁷ Fitrat.A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild.Ma‘naviyat.T.: 2000. – B.151.

³⁸ Фитрат А. Хинд сайёҳи баёноти. Хинд сайёҳи баёноти Хинд сайёҳи баёноти.//Танланган асарлар.1-жилд.Маънавият.Т.: 2000. –В.140.

³⁹ Бехбудий. М. «Ойна» журнали, 1914 йил, 19-сон, 342—344-бетлар.

Biz Mahmudxo‘ja Behbudiy asrlarida Turkiston to‘prog‘ining unumdorligi haqidagi mulohazalarni ham uchratamiz. Yaxudiydan biri derki, “Turkiston eski dunyoning Amrikosidur. Paxta, ma‘dan, g‘alla, xulosa, har nimarsa bor. Turkiston oltindur. Agarda Rusiya xukumati mone‘ bo‘lmasa, barcha mulkimni sotib, pulig‘a Turkistondan yer olib, dehqonchilik etardim. Oltun berib, yer olib, so‘ngra olmos ko‘tarar edim”⁴⁰. Yuqoridagi ta‘riflardan ma‘lum bo‘ladiki, Turkiston eski dunyo Amerikasi, unumdorligi bo‘yicha ilg‘or, bu yerda paxta, ruda, g‘alla va boshqa turdagi ekinlar yetishtirish mumkinligi, Turkiston o‘lkasining yer va iqlimi oltinga teng qayd etilmoqda.

Agar Rossiya hukumati qarshilik qilmasa, yahudiyning butun mol-mulkini sotib, Turkistondan yer olib dehqonchilik qilishini o‘ylashi yurtimiz tuprog‘i haqiqatan ham tillaga arzigulikligini ko‘rsatadi.

Biroq xalqimiz bunday unumdor yerlardan unumli foydalana olmasligi achinarli ahvoldir.

Abdulla Avloniy ham diyorimizda yashash uchun shart-sharoitlarni yuqori baholab, “Taajjubki, mamlakatimizning yerlari, o‘simlik tuprog‘i barakatlik bo‘lib turub, yerli xalq och va yalang‘och, boyqush kabi vayronalarda umr o‘tkaradirlar”⁴¹-deb mulohaza bildirgan.

Yuqoridagi mulohazalardan shunday xulosa chiqarsak bo‘ladiki, nafaqat o‘sha davrda balki hozirki kunlarda ham mamlakatimiz yerlari unumdorligi jihatddan juda yuqori turadi. Faqat bundan dehqon va ziroatkorlarimiz to‘g‘ri foydalanishni bilishlari kerak bo‘ladi.

Shu o‘rinda Abdulla Avloniyning ijtimoiy-iqtisodiy qarashlariga ham to‘xtalib o‘tish lozim deb o‘ylaymiz. Abdulla Avloniyning “Madaniyat to‘lqinlari” deb nom olgan maqolasida o‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli haqida bo‘lib, moddiy-ma‘naviy tomondan xalqning nochor holatda ekanligi asoslar bilan keltirib o‘tilgan. Bunday qiyin va og‘ir ahvoldan chiqib ketishning yagona yo‘li yevropa madaniyatining ilg‘or qismini egallash deb hisoblaydi. Avloniyning takidlashicha, har bir millat maishat tarafidan taraqqiyga yuz qo‘ymasa, ma‘naviy tarafdin, ya‘ni ma‘rifat tarafidan ham taraqqiy qilolmas, bir kishining o‘z maishatiga yetarlik mol-u ashyosi bo‘lmasa va bularning sababiga harakat qilmasa, moddiy va ma‘naviy ishlarni qilmoqqa ojiz bo‘ladi. Bunday och-u yalang‘och, o‘z ovqotini topa olmaydigangan bir xalqqa ma‘rifat, madaniyat, ulum va funundan dars bermoq munosib bir ish bo‘lmasa kerak, chunki faqir xalqlarning kecha-kunduz fikri-zikri non topmoq va bola-chaqasining qornini to‘yg‘izmoq bo‘ladi.

Demak, xalqning bunday qiyin ahvolga tushib qolganligini ijtimoiy-falsafiy jihatdan jadidchilar ijodi asosida tahlil etadigan bo‘lsak, barcha azob-uqibatlarining sababi xalqimizning ortiqcha dabdabalariga berilib ketib o‘zlarini qiyin holatga solib qo‘yganligini ko‘rishimiz mumkin. Xalqning to‘y-marakalarda kim o‘zarga oshiqqanligi ijtimoiy-iqtisodiy darajadan quyi pag‘onaga tushganligi bilan tugagan. Avloniy o‘sha paytdagi aholining to‘rt foizini boyga, ikki foizini ulamoga, uch foizini eshonga, besh foizini dehqonga chiqarib, qolgan sakson olti foizini o‘gir mehnatlarni qiladiga va zo‘rga o‘z kunini ko‘radigan insonlar sifatida qaraydi. O‘z bola-chaqasini og‘ir mehnati, qo‘l kuchi bilan boqadigan faqir to‘yga kelganda vatanini, borini sotib bo‘lsa ham osh berishga va to‘yona berishga hozir bolgan, o‘z istiqbolini, farzandlari saodatini o‘ylamagan xalqqa qanday qilib taraqqiyotni, madaniyatni va ma‘rifatni kutmoq lozim deb afsuslanadi. Bu muommolardan chiqish uchun iqtisodni to‘g‘ri qilish kearakligini, ya‘ni xalqning iqtisodiy bilimi bo‘lishi kerakligi aytib o‘tiladi.

Abdulla Avloniy ham moddiy, ham ma‘naviy nochorlikdan qutilish uchun quyidagicha mulohaza yuritadi. “Yoshlarimizdan madaniyatga loyiq ravishda o‘qub, diniy va madaniy kishilar hozirlansa, tarbiya va ta‘limga mohir olim va olima, adib va adibalarimiz yetushsa, maktab va madrasalarimiz muntazam va tartiblik bo‘lsa, ziroat, sanoat va tijorat ishlariga mohir kishilar yetushub, zamong‘a muvofiq ravishda ish yuritilsa, tartiblik «Dorul-yatim» - yetimxonalar, «Dorul-ojiz» - kambag‘alxonalar, kutubxonalar va qiroatxonalar ochilsa, shirkat (tovarishistvo)lar barpo qilinsa, yuqorida dedigimiz kabi, xalqimiz orasida zamonag‘a loyiq ulum

⁴⁰ Бехбудий М. Танланган асарлар. Маънавият. Т.: 1999. –Б.69

⁴¹ Avloniy A. Jadid adabiyoti namayondalari. Zabarjad media.T.:2024. -B.337-338.

va funundan boxabar ulamolarimiz ko'paysa, och va yalang'och kishilarimizning maishatlarini tuzatmak uchun harakat qilinsa, o'qutilsa, axloq va odob o'rgatilsa, shul vaqtda eskincha orasidan chiqub, haqiqiy madaniyat bo'stonig'a yuzlang'on hamda madaniyat to'lqunlaridan qutulub, sohili salomatg'a chigg'on bo'lur eduk"⁴². Abdulla Avloniy yana "Kim nimani yaxshi ko'rar" maqolasida ham yuqoridagi masalaga to'xtalib, hech bir toifa odamlari mansabdordan oddiy xalqqacha o'z ishini munosib darajada qilmasligini shuning natijasida yurt va uning aholisi xor va nochor ahvolda ekanligini yozib qoldiradi.

Xulosa o'rnida shunu qatd etishimiz joizki, jadidchilik g'oyalari ijtimoiy-iqtisodiy sohalarda o'zgarishlarni rag'batlantirib, xalqni yangi bilim va ko'nikmalarga tayyorlash orqali, taraqqiyotning mustahkam asosini yaratishni maqsad qilgan edi. Bu g'oyalar nafaqat iqtisodiy taraqqiyot, balki ijtimoiy adolat va madaniy rivojlanishga ham xizmat qilishi kerak edi. Shunday qilib, jadidchilik ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning muhim omili sifatida qaraladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Avloniy A. Jadid adabiyoti namayondalari. Zabarjad media.T.:2024. -B.337-338.
2. Fitrat A. Hind sayyohi bayonoti.//Tanlangan asarlar.1-jild.Ma'naviyat.T.: 2000. – B.151.
3. Hakimov N.H. , Amridinova D.T. Turkiston jadidlarining iqtisodiy qarashlari. Falsafa-Siyosat. 2022/№2.-B.40
4. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida. № PQ-3160, 28 iyul 2017 yil. <https://president.uz/oz/lists/view/841>
5. Qudratov. Sh.Y. Buxoro amirligida jadidlarning tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangicha qarashlarining vujudga kelishi. International Journal of Intellectual and Cultural Heritage Volume: 2 Issue: 03 | 2022 ISSN: P – 2181-2306, E – 2181-2314.-B.101.
6. Бехбудий М. Танланган асарлар. Маънавият. Т.: 1999. –Б.69
7. Бехбудий. М. «Ойна» журнали, 1914 йил, 19-сон, 342—344-бетлар.
8. Р.Шарипов, Ф.Муҳиддинова. Ўзбекистон халқлари сиёсий-ҳуқуқий таълимотлар тарихи. Т.: TDYU 2014.-B.106.
9. Фитрат А. Ҳинд сайёҳи баёоти. //Танланган асарлар.1-жилд. Маънавият.Т.: 2000. –B.140.
10. Ikromovich, P. X. (2023). Jadid ma'rifatparvarchiligi shakllanishidagi tarixiy shart-sharoit va obektiv zaruriyat. Finland International Scientific Journal of Education. *Social Science & Humanities*, 11(3), 167-179.
11. Патиев, Х. (2023). ЖАДИДЧИЛИК ҚАРАШЛАРИ НЕГИЗИДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЙЎНАЛИШЛАРНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА ЖАМИЯТДА РИВОЖЛАНИШИ. *Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари/Актуальные проблемы социально-гуманитарных наук/Actual Problems of Humanities and Social Sciences*, 3(11).
12. Nadirova-Kazan, H. (2023, November). THE IMPACT OF MEDIA LITERACY ON THE DEVELOPMENT OF SPEECH SKILLS: A COMPREHENSIVE ANALYSIS. In Next Scientists Conferences (pp. 22-25).
13. Надирова, Х. (2020). ASPECTS OF CLASSROOM METHODS. Общество и инновации, 1(1/s), 269-271.
14. Надирова, Х. (2020). Аспекты аудиторных методов. Общество и инновации, 1(1/S), 269-271.

⁴² Avloniy A. Jadid adabiyoti namayondalari. Zabarjad media.T.:2024. -B.342.